

Yuldasheva Aziza

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

"Musiqqa san'ati" fakulteti "Musiqashunoslik" yo'nalishi

1 kurs talabasi

Annotasiya: Mazkur maqolada F.List ijodida yangi janrlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi yoritilgan.

Аннотация: В данной статье описывается возникновение и развитие новых жанров в творчестве Ф. Листа.

Abstract: This article describes the emergence and development of new genres in the works of F. List.

Kalit so'zlar: Kompozitor, parafraza, ijod, uslub.

Ключевые слова: Композитор, парафраз, творчество, стиль.

Keywords: Composer, paraphrase, creativity, style.

XIX asrning yirik kompozitori pianist, dirijor va musiqiy jamiyat arbobi Venger xalqining milliy g'ururi F.List hayoti va taqdiri murakkab bo'lib, ijodining asosiy davrini Germaniya va Fransiyada o'tkazgan. Faqat umrining oxirida Vengriyada yashagan. Uning ijodi bu xalqlar madaniyati bilan bog'liq

va bu xalqlar madaniyati uning ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Fortepiano ijodi uning hayotida katta qismni egallaydi. F.List ijrochilik va kompozitorlik xususiyatlari asarlarida mujassamlashgan. Fortepiano registrining barchasini qo'llashga harakat qiladi. "Sargardonlik yillari" asari (asli nomi "Ziyorat qilish yillari") deb nomlangan. 1835-1854-yillarda birinchi, 1838-1859-yillarda ikkinchi, 1867-1877-yillarda esa uchinchi yil fasllari yozilgan. Bu asarlar Bayronning "Chayld-Garold sargardonligi" asari asosida yozilgan. Bu siklda har bir asar List ijodiga xos holda programmalashtirilgan. Masalan, "Vallenshtad ko'lida", "Irmoqda", "Jeneva qo'ng'iroqlari" asarlar tabiat manzarasini tasvirlaydi. Bundan tashqari qahramonlik xarakteridagi pyesalardan "Vilgelm tel qo'ng'iroq xonasi", "Jala" asarlarida akkord oktavali passajlar va punktir usul badiiy obrazini yaratadi. Sikldagi markaziy asarlardan "Oberman adrligi" pyesasi bo'lib, romantik xarakterga ega. "Sargardonlik yillarimg" ikkinchi yilida Rafael va Mikelan jelo rasmlari asosida yozilgan. Masalan, "Nikohdan o'tish", "Donishmand", "Tetraarkning ikki soneti" va sikl oxirida - Fantaziya sonata Danteni o'qib va qo'shimcha sifatida "Venetsiya va Niapol". "Venetsiya va Niapol" 1861-yilda yozilib, o'sha davrda zamonaviy mashhur ohanglarning transkripsiyalari edi. Masalan, "Malla soch kemachada", Rossiniy "Otello" operasidan Gondoler qo'shig'i asos bo'lgan. "Uchinchi Sargardonlik yillari" yettita pyesadan iborat. Unda qayg'u va afsuslanish, Xudoga murojat qilish mavzusi asosiy o'rin egallagan. U "Qudratli kuchga ega tabiatni yaratganning qayg'usini va har mavjudot o'imga mahkumligini ko'rsatmoqchi edi". "Uchinchi Sargardonlik yillari" pyesalar siklida "Motom marshi", "Har bir ishdan ko'z yosh", "Angelyus", "Osmonga ko'tarilgan yuraklar" deb nomlangan pyesalardan iborat.

F.List transkripsiyalari. Transkripsiya - mashhur kuy va qo'shiqlami fortepiano uchun moslashdir. Bu uslubda F.List bir qancha mashhur kompozitorlar asarlarini fortepiano uchun qayta ishlagan. Masalan, Shubert, Betxoven, Verdi, Bax, Veber, Vagner. Bu transkripsiyalar List tomonidan mohirlik va texnik jihatdan mukammal xarakterdagi asarlar bo'lib, uning asosida programmali yo'nalish yetakchilik qilgan. Forte pianoni simfonik asarga o'xshatish uning ijrochilik va ijodiy yangiliklaridan biri edi. Bu bilan pionizm resurslarining ifoda vositalarini kengaytirdi.

Simfonik asarlar F.List ijodida asosiy ikkinchi bo'limni tashkil qiladi. Forte piano musiqasiga nisbatan aynan simfonik asarlarida abstrakt g'oya va yangi yo'nalish kuchliroq namoyon bo'ladi. Uning simfonik ijodi badiiy yetuk asarlarni tashkil qiladi. Simfonik ijodida ham programmali yo'nalish mavjud. Kompozitor orkestri o'zining jaxangdor, go'zal va boy ohanglari bilan ajralib turadi. F.List orkestrda uchta asosiy guruhni belgilaydi. Torli, puflama yog'ochli va puflama mis cholg'ulari. F.List simfonik poema janrining romantik yo'nalishidagi asoschisi. 1854-yilgacha simfonik poemalar yozilgan. Hammasi bo'lib 13 ta simfonik poema yozgan.

F.List simfonik poemalari erkin bir qismli programmali asarlar bo'lib, ulardan sonata, variatsiya, rondo shakli ba'zilarida esa to'rt qismli sonata sikl shakli asos bo'ladi. F.List o'zining betakror simfonik poemalarida esda qoladigan musiqiy obraz yaratib, turli hayotiy vaziyatlardagi harakatini ko'rsatgan. "Prelyudlar" simfonik poemalar orasida eng mashhurlaridan biri. F.List simfonik poemalarida obrazlar doirasi juda keng. F.List Vagner kabi orkestrda kulminatsiya paytida mis puflama cholg'ularining kuchli unison uslubini torli cholg'ular fonida ishlatadi. Bu janming shakllanishiga romantik simfonizm oqimini shu ko'rinishdagi uslubda F.List davrigacha bo'lgan namunalari edi. Bir tomondan ko'p qismli siklni bir yagona mavzuga asoslantirish yo'nalishi bo'lsa, ikkinchi tomondan simfonik poemalar paydo bo'lishiga programmali konsert uverturalari sabab bo'ldi. Birinchisiga misol qilib Mendelson "Shotlandiya simfoniyalari", R.Shuman "Re minor simfoniya" asarlarini keltirish mumkin. Ikkinchisiga Mendelson uverturalari va L.Betxovenning "Kariolan", "Leonora № 2" asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Bu ikki variantning o'xshash tomonlarini F.List o'zining simfonik poemalariga kiritib, boshida konsert uverturalari deb ham yuritdi. F.List yaratgan yangi janr paydo bo'lishiga R.Shuman, Shubert, Shopenlaxning "Fantaziya", "Ballada" va turli fortepiano asarlari kabi yirik murakkab bir qismli asarlar ham namuna bo'ldi.

Simfonik poemalardagi obrazlar doirasi juda keng. Bu obrazlarni yaxatishda F.List ko'p asrlar davomida xalq tomonidan yaratilgan jahon adabiyoti nomunalari asos bo'ldi. Uni ruhlantirgan jahon adabiyoti asarlarida antik davri miflari "Orfey", "Prometey", XVII-XVIII asar namunalari ingliz va nemis tragediyalari, Shekspirning "Gamlet", Gyotening "Tosso", fransuz va venger zamondoshlari asarlaridan Gyugo "Mazepa", "Tog'da nima gap", Lamortinaning "Prelyudlar", Vereshmartining "F.Listga" asarlarini aytib o'tish mumkin. Forte piano asarlaridagi kabi F.List o'zining simfonik poemalarida turli amaliy san'at namunalari asosida obrazlar yaratgan. Masalan, nemis rassomi Kaulbaxning "Gunlar jangi" rasmi, venger rassomi Zichining "Beshikdan to qabrgacha" rasmlari misol bo'la oladi. Bularning barchasi orasida qahramonlik mavzusiga yondoshish va murojaat qilish yetakchilik qiladi. Sujetlardan kuchli va qudratli irodaga ega insonlarning ozodlik

uchun kurashi, xalq ommasini tasvirlovchi mavzular o'ziga jalb qiladi. Masalan, o'zining asarlarida antik qahramoni Prometey mardlik timsoli va bukilmas g'urur shaxsi. Gamlet va Tosso asarlarida kompozitor baxt, ozodlik va yuksaklikga intiluvchan insonlar jasoratini ulug'laydi. O'zining barcha betakror simfonik asarlarida "Tosso", "Prelyudlar", "Mazepa" bir mavzuga asoslangan bo'lib, monotematizm variatsiya shaklining davom qildirgan janr sifatida shakllangan uslub.

Asosiy mavzuni transformatsiya qilish mavzu bilan bog'lik, chunki qahramonni turli hayotiy vaziyatlarda badiiy va obrazli ko'rsatish imkonini beradi. Har bir obraz musiqiy ifoda vositalari asosida mohirlik bilan ko'rsatilgan. Tezda esda qoladigan musiqiy obrazni yaratish F.List ijodi xususiyatlaridan biridir. Musiqiy obrazlarni konkretlashtirish uchun tarixi shakllangan marsh, xoral, menuet va shu kabi janrlardan foydalanishi ana shu obrazlarni qabul qilishni yengillashtirdi.

Listning dasturiylik tamoyillari Berlioznikidan farq qiladi. Berlioz simfoniyasida sujet rivojini bayoniy uslubga bersa, Listni ko'proq asosiy poetik g'oyaning umumlashmasi qiziqtiradi. Opining rang-barang topilmalari bilan List melodika sohasini kengaytirgan holda bir vaqtning o'zida u garmoniya sohasida ham yangiliklar kiritadi. List «simfonik poema» janri va «monotematizm», deb ataluvchi musiqiy rifojlanish usullarining yaratuvchisi bo'lib hisoblangan. Listning fortepiano texnikasi, faktura sohasidagi muvaffaqiyatlari ahamiyatlidir, negaki, List daho darajasidagi ijrochi boigan va tarixda unga yetadigani bo'lmagan. Veymar davrida ikki dasturiy simfoniya yozilgan: 1854- yilda «Faust» simfoniyasi, u uch qismdan iborat: «Faust», «Gretxen», «Mefistofel». 1857-yilda Dantening «Ilohiy komediya»si bo'yicha ikki qismdan iborat simfoniya yozilgan: «Do'zax» va «Arosat». Shuningdek, Lenauning «Faustdan ikki epizod», «Tungi namoyish» va «Mefisto-vals».

Rim va ikkinchi Veymar davri 1861-yilda List knyaginya Vitgenshteyn bilan nikohini ilojisiz qilib qo'yayotgan bir qator siyosiy va diniy xarakterdagi g'ovlarni bartaraf etishga umid qilib, Rimga otlandi. Rim katolik cherkovi ularning ittifoqiga fotiha berishdan bosh tortgach, g'ayratli musiqachi charchagan va hayotdan hafsalasi pir boigan holda tarki dunyo qildi. 1865-yil

List abbatlik darajasini qabul qildi va bir necha yirik diniy asarlar yozdi: «Muqaddas Yelizaveta», «Xristos» oratoriyalari, «Vengr tojlanish messasi». Rim davrida List dunyoviy yo'nalishda ham musiqa yozgan: «O'rmon shovqini» va «Gnomlar yurishi» mashhur fortepiano etudlari, «Ispan rapsodiyasi», Betxoven, Verdi va Vagner asarlari transkripsiyalari.

Parafraza - mohirona cholg'u fantaziyasining XIX asrda tarqalgan ifodasi. U asosan fortepiano uchun ommaviy qo'shiqlar, opera ariyalari mavzularidan tashkil topadi.

Transkripsiya (transcriptio — ko'chirib yozmoq). Simfonik, yakka cholg'u, vokal musiqani fortepiano uchun qayta ishlagan.

List o'zining butun ijodiy faoliyati davomida fortepiano musiqasini yozdi. U o'zining eng qimmatli fikr-o'ylarini, orzu- umidlarini va tuyg'ularini fortepianoga bag'ishladi. Uning fortepiano uchun asarlarida kompozitor va ijrochining ijodiy o'zligi uyg'un holda birlashib ketgan. Buyuk pianinochi sifatida List o'zining ajoyib ijrosi bilan minglab tinglovchilarni qoyil qoldirardi, u pianino texnikasining turli-tuman

ko'rinishlarini mohirona egallagan edi. U fortepiano sadolanishi butun tizimi va xarakterini o'zgartira oldi, fortepianoda dabdabali ijro etish, cholg'uning qudrati va go'zalligini birinchi o'ringa olib chiqdi. List fortepiano fakturasini orkestr vositasidagi ifodaviylik bilan boyitdi, orkestr cholg'ulari tuxli guruhlarining sadolarini mohirona tarzda talqin etdi. U ko'plab cholg'ulami, jumladan, fortepiano adabiyotida kamdan kam uchraydigan qo'ng'iroqchalar, venger milliy cholg'ulari (simbal) tembrini o'miga qo'yib o'xshatgan.

List bir qismli dasturli simfonik poema janrining asoschisi. Uning simfonik musiqasida dasturiylik umumlashtirilgan xarakterga ega. Sujetli hikoya qiluvchi simfonizm ijodkori bo'lgan Berliozdan farqli o'laroq, List o'z asarlarida san'at asarlari, tabiat hodisalari, manzaralar va adabiy asarlardan olingan kayfiyatni tasvirleydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X.A.Trigulova "Xorijiy musiqa adabiyoti"
2. B.Yoqubov "Xorijiy mamlakatlar musiqa adabiyoti"
"Musiqa tarixi"
3. B.Madrimov